

**ABDURAUFG FITRATNING HAYOTI VA FAOLIYATI***Ismandiyarova Oydin Abdimo‘minovna**Ohangaron Shahar 9-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining**Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi**+99894 629 39 00*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada milliy uyg‘onish, millatning o‘zligini anglash jarayoni davr adabiyotining ruhi va mazmuni tashkil etilganligi, milliy uyg‘onish mintaqamizda jadidchilik shaklida namoyon bo‘lganligi, o‘z mustaqilligini yo‘qotishi natijasida ko‘plab “millat yuragi”ning so‘nish sabablari, adabiyot davr voqealari ta’sirida g‘arblashishi, mazmun-mundariyasi kengayishi, an’anaviy she’riyat va u bilan bog‘liq timsollarga yangi mazmun kirib kelishi, bir so‘z bilan aytilganda zamonoviy, realistic adabiyot maydonga kelganligi va bunda ko‘plab tarixchi olim, tilshunos, pedagoglar, jumladan, Mahmudxo‘ja Behbudiyning faoliyati va hissasi ko‘rsatib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** (A. Shakuriy), Halvoiy, “Tanqid saralamoqdur”, I.I.Geyer “Sayohatnoma”, amir Shohmurod, “Sho‘ro”, “Sartlar”

Abdurauf Fitrat ijodi va faoliyati yaqin tariximizning eng porloq sahifalaridan birini tashkil qiladi. Uning zamonida adabiyotni jamiyatga xizmat qildirish bilan shugulunmagan ijodkorni toppish qiyin bolsada soz va ish birligini hech kim u olib chiqqan maqomga kotara olgan emas. U adabiyot va madaniyatninggina emas, siyosatning ham tan olingan arboblardan edi. U butun umri davomida ona-Vatanni ozod va obod qilish dardi bilan yashadi. Bu buyuk ishtiyoq uni vatan va millat fidoyilaridan tashkil topgan “Yosh buxorolilar” jamiyatni tuzilishga muvaffaq etdi. Songroq mustqail partiya sifatida faoliyat yuritgan ushbu jamiyatning pirovard maqsadi qadam-baqadam borib, istiqlolni qolga kiritish va islohatlar yordamida mustqail demokratik davlat kurashdan iborat edi.

Abdurauf Fitrat O‘rta Osiyo jadidchilik harakatining mashhur vakillaridan, yangi Ozbek adabiyotining asoschilaridan, tan olingan dramturg, nosir, shoir va zabardast olimdir.

U haqda ilk malumot bergan kishi Buxoro amiri Abdullaxonning saroy xodimlaridan bolgan Xoji Nematulla Muxtaramdir. U “sarrof Hoji Abdul Rauf valadi Abdul Rahim sarrof” tahallusi bilan ozining “Tazkiratush-shuaro”siga kiritadi va u haqda ikki ogiz malumot berib, sherlaridan birini namuna sifatida keltiradi. Fitratning 1909-1910 yillarda Istanbulda bosilgan dastlabki asari “Munozara” Turkistonda juda tez aks-sado berdi. 1912-yilda Hoji Muin ozbekchaga tarjima qilib, “Turkiston

viloyatining gazetasi”da bosdirdi. 1913-yilda Mahmudxoja Behbudiy soʻngsozi bilan alohida kitob holda chop etildi.

1921-yil martdan Buxoro jumhuriyatida turk tili davlat tili deb elon qilindi. Davlat teatri tuzildi. Toshkentdan Mannon Uygur, Abdulxamid cholpon taklif . vaqf ishlarini boshqarishga esa mashhur Munavvarqori Abdurashidxonov yolga qoydi. Bu ishlarining barchasi, birinchi navbatda, Fitratning va uning safdoshi Fayzulla Xojaevning aqli va gayrati bilan boshlangan edi. Biroq jumhuriyatining erkinlik, mustaqillik yolidagi bu harakatlari markazning Turkistondagi noibi – Turkkomissiyaga yoqmad. 1923-yil 12-iyunda Rossiya communist partiyasi Markaziy Komiteti Siyosiy Buyrosi “ Buxoro masalasi”ni kordi. Siyosiy buyro Buxoro Shorolar Jumhuriyatida davlat hokimiyatini yanada “demokratlashtirish va aktivlashtirish” togrisida qaror bqaul qildi. Qarorga Stalinning Buxoro Nozirlar shorasining tarkibi haqidagi “Buxoro hukumati nomi ostida ish korayotganlarning xalq va sovet hukumatiga hech bir aloqadorligi yoq” degan fikri asos qilib olindi.

Fitrat oz dramalari bilan Ozbek dramaturgiyasi rivojida buyuk eol oynadi. “Chin sevish” va “Hind ixtilochilari” asarlarida Hindiston xalqlarining ozodlik va mustaqillik uchun ingliz mustamlakachilarga qarshi olib borgan murosasiz kurashlari orqali Turkiston xalqlarining tunganmas dardlarini ifoda qildi.

“Abulfayzxon” adabiyotimizda tarixiy mavzuda yozilgan birinchi drama edi...

20-yillarning ikkinchi yarimidan sharoit ozgardi. Shoro tuzumi qaror topa borgan sari erkin fikr topayib bordi. Eski ziyolilarni, xususan jadidlarni qoralash boshlandi. Yuqorida qayd etilgandek, 1929-yilda “Qizil Ozbekiston” gazetasining 3-sonida J. Boybolatovning “Ozbek adabiyotida chigatoylik” maqolasi bosildi. Fitratning “Ozbek adabiyati namunalari” munosabati bilan yozilgan bu maqola boshdan oxirigacha uning muallifini “fosh etish”ga qaratilgan edi.

“Sharq haqiqati” gaqetasining 1930-yil 180, 182, 183-sonlarida J. Boybolatovning “Ozbeklarning adabiy merosi” nayrogi ostidagi panturkizm” sarlavhali maqolasi bosildi. Muallif Fitratning “tarix”ini kavlashga tushdi. 1923-yildagi “ayb”larini qozgatti. Ushbu maqolaning “Jinoiy ishi”ga ilova qilingan. Shualrga qaramsdan, F. Xojaev 1923-yildagi singari adibni yana saqlab qolishga muvaffaq boldi. 1937-yilda esa saqlab qolishning iloji bolmadi. Shu yili 24-aprelda Ozbekiston prokurorining korsatmasi bilan Davlat Xavfsizligi Boshqarmasi tortinchi bolimining boshligi Davlat Xavfsizligi leytenanti Ogabekov tomonidan hisobga olindi.

Fitrat dramaturg sifatida juda katta shuhratga ega. U barcha zamondoshlari tomonidan bu borada yakdillik bilan etirof etilgan ijodkor edi. Mutaxxassislarning aniqlashlaricha, u ondan dramatik asar yozgan. Bular: “begijon”, “mavludi sharif”, “abo Muslim”, “temur saganai”, “oguzxon” kabilar.

“Chin sevish” va “hind ixtilochilari” voqealari Hindistonda yuz beradi. Birinchiga ham muallaf “Hind ixtilochilari turmushidan olingan 5 pardali ishqiy-

hissiy fojia dir” deb izoh beradi. Ixtilochi – kozgolonchi degandi. Demak, har ikki asar ham hind xalqining ingliz istilochilariga qarshi mustaqillik uchun olib borgan kurashlari haqida. Ular bir asarning ikki variant emas, bir mavzudagi ikki asar. Dastlab, chin sevish yozilib 1920-yilda chop etilgan. Ikkinchisining yozib tugatilgan yilini muallif 1920 deb korsatadi. 3 yil keyin Berlinda bosilgan.

Kichik dramatik doston “shaytonning Tangriga isyoni” Oktyabrning oqibatlarini, yoqsillikni ilohiylashtirish fojiasini oziga xos yosinda ifodalab bergan bir asardir. Odam yoqdan bor qilindi. Xalifa deb elon qilindi. Lekin unga hech kim itoat etmadi. Oxir-oqibat dunyo Yaratganning amri bilan azalga qaytdi.

Arslon qishloq hayoti voqealariga bagishlangan bolib shoro davri ozgarishlariga nisbatan bir qadar murosasozlik bilan yozilgan drama. Dehqon yigit Arslonni boy arzimagan bahona bilan oz domiga ilintirib oladi. Arslonni atrofidagi haqsizliklarini korib chiday olmaydi, jabrdiydalarga yordam beraman, deb toyga yigib koygan pulidan ajraladi. Dosti Botur uchun ortaga tushib qamaladi.

Fitrat dramalari orasida alohida orinlardan birini “Abulfayzxon” egallaydi. “Abulfayzxon” janriga kora – tarixiy fojia. Mazmun-mundarijasiga kora kohna Buxoro tarixidagi goyat masuliyatli va murakkab davrlardan birini qamalga olgan. Bu ashtoriyxoniylar sulolasining oradan kotarilib, orniga mangitlar saltanatining kelishidir. Drama bir qadar organilgan, u haqda- qator maqolalar yozilgan, dissertatsiya yoqlangan<sup>1</sup>

<sup>1</sup> И. ганиев. Мастерство Абдурауфа Фитрата в создании трагедии «Абулфайзхон»